

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

UMAROV XUSANBOY RUSTAMOVICH

**O‘QUVCHILARDA JINOYAT VA JAZOGA DOIR BILIMLARNI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (huquq)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Umarov Xusanboy Rustamovich

О‘quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini
takomillashtirish 3

Умаров Хусанбой Рустамович

Совершенствование методики развития у учащихся знаний о преступлениях
и наказаниях. 23

Umarov Xusanboy Rustamovich

Improvement of the methodology for developing students' knowledge of crime
and punishment..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published work..... 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

UMAROV XUSANBOY RUSTAMOVICH

**O‘QUVCHILARDA JINOYAT VA JAZOGA DOIR BILIMLARNI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (huquq)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5198 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sahifasi va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Madumarov Talantbek Tolibjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdurahimova Dilfuzaxon Alievna
pedagogika fanlaridoktori, professor

Tursunov Farrux G‘ulomovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil, 5 - avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent vil., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-50. e-mail: jxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ -raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (+99871) 230-32-71; faks: (+998971) 230-32-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil 23 - iyul kuni tarqatildi.
(2025 yil 23 iyuldagi 14 — raqamli reyestr bayonnomasi).

M.X.Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlari doktori, professor

I.R.Narkulova

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d., (PhD) dotsent

Sh.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jinoyatchilikni oldini olish orqali xavfsiz davlat barpo etish maqsadida yoshlarni jinoyat va jazo haqidagi bilimlarini oshirish ta'lim va tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning bu sohadagi bilimlarini oshirish maktablarda mavjud bo'lgan "Fuqarolik tarbiyasi" negizida huquqiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, ular orasida jinoyatchilikni oldini olish, ularda jinoyat huquqiga doir dunyoqarashni shakllantirish, jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarini rivojlantirish masalalariga yangi zamonaviy usullar bilan yondashish dalzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlarda har bir jinoyatga jazo muqarrarligi, jazoning qonuniy va adolatli bo'lishining huquqiy asoslariga doir bilimlarni shakllantirish asosida ijtimoiy burch, mas'uliyat, fidoyilik sifatlarini qaror toptirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ham, o'quvchilarda jinoyatchilikka moyil xulq-atvorni shakllanishini oldini olish, jinoyatni sodir etmaslikka oid bilimlarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari, ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq etish ehtiyoji ortib bormoqda. Bu, o'z navbatida, axloqiy-huquqiy ta'lim-tarbiya asosida jinoyat huquqi va jazo qoidalariga doir bilimlarni rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish vazifalarini keltirib chiqaradi.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari¹ da yoshlar jinoyatchiligini oldini olish, jinoyat yo'liga kirishga moyilligi bor o'quvchilar bilan individual shug'ullanish, o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish, o'quvchi yoshlar jinoyatchiligining ko'payib ketishi sabablari va ijtimoiy oqibatlari, jinoyat, jazo, jazoning muqarrarligi, voyaga yetmaganlar xulqida namoyon bo'luvchi salbiy illatlarning oldini olish mexanizmlari, maktab ta'limida huquqiy ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga doir bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, huquqiy ta'lim nazariyasi va metodikasini takomillashtirishga doir yuridik klinikalarni tashkil etish masalasi (AQSH, Avstraliya); inson huquqlarini o'qitish (Fransiya); huquq fanlarini o'qitishning nazariyasi va metodikasini takomillashtirish masalasi (Rossiya, Ukraina) amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu esa, ko'plab mamlakatlarda ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy ta'lim vositasida umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida ham huquqiy bilimlarni rivojlantirish, huquqiy savodxonlikni shakllantirish negizida jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Mamlakatimizda yangi taraqqiyot strategiyasida ham huquqiy ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish asosida o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, o'z huquq va majburiyatlarini bilishga yo'naltirish, jinoyatchilikning oldini olish, buning uchun ularda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirishga

¹ Institute for the study of Religion, Economics and Society, Instituteresearchsocial opinion of Gallup, Centresearchcivilsociety of Universityname Johns Hopkins (AQSH), Institute of Central Asia, European Union Institute for SecurityStudies (Франция), Institute of Contemporary Arts (Англия), Asian Strategy and LeadershipInstitute (Малайзия), CivilSociety Fund FriedrichEbert, BerlinCivilSocietyCenter (Германия), Institute of Academy for study moderninternationalrelationsEurope and Asia (Хитой), Osaka University (Япония), Seoul of National University (Жанубий Корея)

qartilgan ustuvor vazifalar belgilab olingan. Chunki “jahonda shiddat bilan o‘zgarayotgan notinch va murakkab vaziyat, turli mojarolar, el-yurtimizning osoyishta hayotini ta‘minlash hamda mavjud tahdid va xatarlarga munosib javob berishga doim tayyor turishni taqozo etmoqda”. Bu jarayonda o‘quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga oid bilimlarni rivojlantirishning pedagogik jihatlarini tadqiq etish va “har bir soha va yo‘nalish, ta‘limning barcha bosqichlari uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslangan dasturi tayyorlanishi” zarurati kelib chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 — 2026 yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF60-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yi 19-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-1-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ2833-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgustdagi “Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ3200-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ4006-son qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda o‘quvchilarning axloqiy-huquqiy bilimlarni rivojlantirishning ijtimoiy jihatlarini, xususan, mazkur jarayonda huquqiy tarbiyani tashkil etish yo‘llari, jinoyat va jazoning ijtimoiy-huquqiy maqomi, o‘quvchilarda huquqiy savodxonlikni shakllantirish, huquqiy ta‘lim - tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirish masalalari F.G‘.Tursunov N.F.Saydalixodjayeva, M.Aripova, A.X.Saidov, M.H.Usmonboyeva, B.Ismailov, Z.M.Islomov, D.Karimova, X.T.Mamatov, O.T.Nasiriddinova, G.A.Matkarimova,¹ tomonidan o‘rganilgan.

¹ Ушбу ва бошқа олимларнинг илмий ишлари диссертациянинг фойдаланилган адабиётлар рўйхатида келтирилган

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida huquqiy bilimlarni rivojlantirish, huquqiy fikrlash tarzini va dunyoqarashini o'stirishga qaratilgan tadqiqotlar D.Bell, A.Yu.Buxarev, N.N.Voplenko, Yu.A.Dimitreyev, S.N.Kasatkin, A.B.Korotun, V.V.Pavlovskiy, R.I.Xachaturov, lar tomonidan bola huquqlarini himoya qilishning axloqiy-huquqiy asoslari va ijtimoiy-pedagogik mexanizmlariga doir tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijlik olimlardan M.P.Baumgartner, D.Black, L.B.Edelman, P.Russel va J.e.Stiglitz kabilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'quvchi-yoshlarning huquqiy bilim va ko'nikmalarini, huquqiy savodxonligini rivojlantirishning axloqiy, huquqiy, siyosiy va pedagogik jihatlari bayon qilingan.

Biroq o'quvchi-yoshlarda huquqiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari turli soha olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, o'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish alohida tadqiq etilmaganligi tadqiqot ishining ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universitetini ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning jinoyat va jazoga doir bilimlarini rivojlantirish o'quv-tarbiyaviy parametrlarni kiritish asosida huquqiy-tarbiyaviy ta'lim imkoniyatlarini aniqlash;

o'quvchilarning jinoyat va jazoga doir bilimlarini rivojlantirish tizimini huquqiy bilim va axloqiy tarbiya asosida mashqlar majmuining reflektivlik darajasini dars mashg'ulotlari va mustaqil topshiriqlar asosida kengaytirish orqali takomillashtirish;

o'quvchilarning jinoyat va jazoga oid bilimlarini rivojlantirishning didaktik ta'minotini o'zaro huquqiy ma'lumot almashishning integrativlik darajasini mavzular va mashg'ulotlar xususiyatlariga ko'ra ta'lim sharoitini kengaytirib borishning reproduktiv bosqichlarini loyihalash asosida takomillashtirish;

o'quvchilarning jinoyat va jazoga oid bilimlarni rivojlantirishning texnologik asosini korreksion-tarbiyaviy faoliyat tamoyillariga axloqiy-huquqiy dunyoqarash sifatida kiritish va integratsiyalash asosida aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Andijon, Samarqand va Xorazm viloyatlari umumiy o'rta ta'lim maktablaridan jami 522 nafar 11-sinf o'quvchi-respondent ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini o'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish jarayonida ilmiy-metodik manbalarni o'rganish va tahlil qilish, sotsiologik

so'rovnomalar, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning jinoyat va jazoga doir bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy-tarbiyaviy ta'lim imkoniyatlari tizimli ravishda huquqiy savodxonlikni oshirish, tafakkurni integrativ yuksaltirish, ta'limni tarbiya bilan bir vaqtda amalga oshirish kabi o'quv-tarbiyaviy parametrlarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish asosida rivojlantirilgan;

o'quvchilarning jinoyat va jazoga doir bilimlarini rivojlantirish tizimining amaliy komponenti huquqiy fikrlash faolligini huquqiy tarbiya asosida ta'minlash, vitagen (hayotiy) mashqlar majmuining refleksivlik darajasini dars mashg'ulotlari va mustaqil topshiriqlar asosida kengaytirish orqali takomillashtirilgan;

o'quvchilarning jinoyat va jazoga oid bilimlarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti o'zaro huquqiy ma'lumot almashishning integrativlik, diagnostik, tashkiliy kabi malakalar doirasini an'anaviy va aralash ta'lim sharoitida ahloqiy dilemmalarni muhokama qilish, huquqbuzarliklar bo'yicha debatlar, jinoyat va uning oqibatlari bo'yicha muhokamalar o'tkazishni kengaytirish orqali kengaytirib borishning reproduktiv bosqichlarini loyihalash asosida takomillashtirilgan;

jinoyat va jazoga oid bilimlarni rivojlantirishning texnologik asoslari jinoyatga javobgarlikning muqarrarligini, jazoning qat'iyligini va tarbiyaviy yo'naltirilganligini o'quvchilarning dunyoqarashiga axloqiy-huquqiy aksioma sifatida kiritish va integratsiyalashga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

o'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik mazmuni, imkoniyatlari, kognitiv asoslari va ko'rsatkichlari hamda didaktik algoritmini ishlab chiqildi;

o'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirishga doir dars ishlanmalar va amaliy ta'limiy texnologiyalar ishlab chiqildi;

o'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni oshirish, huququy saxodxonligini shakllantirish va axloqiy-tarbiyaviy ta'sir etish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi "O'quvchilarning jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari" nomli monografiya tayyorlandi va nashr qilindi;

umumiy o'rta ta'lim huquq fani o'qituvchilari uchun o'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirib borishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga metodik yordam berishga mo'ljallangan "ADU maktab Jinoyat va jazo o'quv kursi 2023" nomli onlayn kurs dasturi ishlab chiqilgan va bepul mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan - https://t.me/jinoyat_va_jazo_2023ADU.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi asosiy metodologik tamoyillarga asoslanilganligi, unda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalarining adekvatligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish mazmuni, nazariy-metodologik, amaliy-metodik va tashkiliy-texnologik asoslari, didaktik-tarbiyaviy imkoniyatlarining yoritilganligi, maktab huquq ta’limi orqali o‘quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish tuzilmasi, bosqichlari, omillarining aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik ta’minotning boyitilganligi, o‘quvchilarning huquqiy fanlardan bilimni oshirishga qaratilgan amaliy-metodik tavsiyalarining ilgari surilganligi hamda erishilgan natijalar oliy ta’lim muassasalarida gumanitar fanlarni o‘qitishda samarali natijalarni qo‘lga kiritishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqotda olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘quvchilarning jinoyat va jazoga doir bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy-tarbiyaviy ta’lim imkoniyatlari tizimli ravishda huquqiy savodxonlikni oshirish, tafakkurni integrativ yuksaltirish, ta’limni tarbiya bilan bir vaqtda amalga oshirish kabi o‘quv-tarbiyaviy parametrlarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish asosida rivojlantirilganligiga doir yangiliklaridan Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining “Jamiyatda huquqiy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2024-yil 19-yanvardagi 4-sonli dalolatnomasi). Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi o‘quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish orqali voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishga xizmat qildi;

o‘quvchilarning jinoyat va jazoga doir bilimlarini rivojlantirish tizimining amaliy komponenti huquqiy fikrlash faolligini huquqiy tarbiya asosida ta’minlash, vitagen (hayotiy) mashqlar majmuining refleksivlik darajasini dars mashg‘ulotlari va mustaqil topshiriqlar asosida kengaytirish orqali takomillashtirilganligiga doir yangiliklaridan hududiy boshqarmalar tomonidan Maktablarda huquqiy savodxonlik oyligini o‘tkazishga doir tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 19-fevraldagi 04-02/3-166-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarning jinoyat va jazoga doir bilimlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Davlat va huquq asoslari” fani orqali amalga oshiriladigan pedagogik mashg‘ulotlar samaradorligiga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

o‘quvchilarning jinoyat va jazoga oid bilimlarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti o‘zaro huquqiy ma’lumot almashishning integrativlik, diagnostik, tashkiliy kabi malakalar doirasini an’anaviy va aralash ta’lim sharoitida ahloqiy dilemmalarni muhokama qilish, huquqbuzarliklar bo‘yicha debatlar, jinoyat va uning oqibatlari bo‘yicha muhokamalar o‘tkazishni kengaytirish orqali kengaytirib borishning reproduktiv bosqichlarini loyihalash asosida takomillashtirilganligiga doir yangiliklaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VII yo‘nalishida belgilangan mamlakatda yoshlar

ma'naviy tarbiyasini tizimli tashkil etishga qaratilgan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida barcha tizimlarda belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni uslubiy ta'minlash mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti 2024-yil 20-fevraldagi 84-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish usullari va o'qitish texnologiyalari, o'quv reja va dasturlarini didaktik jihatdan takomillashtirishga erishildi;

jinoyat va jazoga oid bilimlarni rivojlantirishning texnologik asoslari jinoyatga javobgarlikning muqarrarligini, jazoning qat'iyligini va tarbiyaviy yo'naltirilganligini o'quvchilarning dunyoqarashiga axloqiy-huquqiy aksioma sifatida kiritish va integratsiyalashga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilganligiga doir ilmiy-metodik tavsiyalardan "Jan Mone Yevropa tadqiqotlari markazi" tomonidan amalga oshirilgan 600528-EPP-1-2020-1-UZ-EPPJMO-CoE raqamli loyihasi doirasida foydalanilgan (Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining 2020-yil 13-oktabrdagi 01/4-1013-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur loyihaning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishga va jamiyatda jinoyat va jazo qonunchligi va amaliyoti bo'yicha bilimlarni aniqlashga qaratilgan faoliyat samaradorligiga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 6 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi konferensiya va forumlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 166 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida Jinoyat va jazo tushunchalarining shakllanish tarixi va pedagogik mohiyati, o'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, o'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarning empirik tahlili masalalari haqida so'z boradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda tarbiyasi og‘ir o‘smirlar va o‘spirinlar bilan bog‘liq muammolar ham kun tartibidagi masalalardan biri sifatida baholanmoqda. Shu sababli tarbiyasi og‘ir voyaga yetmaganlar bilan ishlashni jonlantirish, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning oldini olish masalalariga e‘tiborni kuchaytirish, o‘quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda jinoyatchilik va huquqbuzarlikka oid bilimlarini oshirish, pedagogik va psixologik korreksiya metodlariga murojaat etishni talab etadi. Qonun ustuvorligini o‘rnatishga qaratilgan sa‘y-harakatlarga putur etkazadigan yana bir asosiy omil - bu huquq tizimida shaxs va jamiyat manfaatlarini muvozanatlash muhimligi haqida jamoatchilikni o‘rgatishga qaratilgan dasturlarga yetarlicha sarmoya kiritilmaganligidir. Aholining huquqiy bilimi yetarlicha bo‘lmasa, davlat organlari tomonidan chiqarilgan nohaq qarorlar ustidan sud orqali shikoyat qilish imkoniyatidan kam foydalansa, mansabdor shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetkazadi¹. Mazkur paragrafda jinoyat va jazo tushunchalarining ijtimoiy, falsafiy va huquqiy mazmun-mohiyati, konseptual asoslari tahlil qilish maqsad qilingan. Shu bois ishni jinoyat tushunchasining konseptual asoslarini ko‘rib chiqishdan boshlash maqsadga muvofiq ish bo‘ladi.

Dastlab tahlilni jinoyat tushunchasining mohiyatidan boshlash masalaning yechimini oydinlashtirishga yordam beradi. Yuridik ensiklopedik lug‘atda: “Jinoyat – Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb hisoblanadi. Jinoyat boshqa qoidabuzarliklardan o‘zigaxos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu qilmishning ijtimoiy xavfsizligidir. Chunki jinoyat natijasida jamiyat va shaxs uchun ham moddiy, ham ma‘naviy zarar yetkaziladi. Shuning uchun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyi oqibatda aks etadi”² deb ta‘rif beriladi. Demak, jinoyat tushunchasi o‘zining ijtimoiy xavfi, aybliligi, qonun bilan taqiqlanganligi kabi xususiyatlari bilan boshqa qoida buzarliklardan farq qilar ekan.

Jinoyat tushunchasiga ilk bor 1791 yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida ta‘rif berilgan bo‘lib, ushbu ta‘rif formal tusga ega edi. Unda: “Jinoyat bu – amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir”, – deyilganedi³.

Jinoyat – axloqiylik tamoyillari asosida tarkib topgan huquqiy talablar, qonun-qoidalar ustuvor bo‘lgan fuqarolik jamiyatida ushbu meyorlarga mensimasdan munosabatda bo‘lish oqibatida shaxsiy manfaatlar ustunligi hamdao‘zgarlar haq-huquqlarini buzish natijasida sodir etilgan hodisa hisoblanadi. Aytish mumkinki, jinoyat individual ahamiyatga ega tushunchadir. Shu nuqtayi nazardan kriminologiya ayrim jinoyatni emas, balki ularning majmuyi – “jinoyatchilik”ni o‘rganadi. Shu bois jinoyatchilik jinoyatlarning oddiy yig‘indisi emas, balki ayrim jinoyatlardan farq qiladigan⁴, yangi, yaxlit va uzviy hodisadir.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 9-январдаги “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5618-сон Фармони

² Юридик энциклопедия /Юридик фанлар доктори, профессор У.Таджихановнинг умумий таҳририда. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 156.

³[https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/Jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi](https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/Jinoyat%20va%20jinoyatchilik%20tushunchasi)

⁴ Қодиров Э. Ёшлар жиноятчилигининг олдини олиш масалалари. – Тошкент: Республика Маънавият тарғибот маркази, Тошкент давлат юридик университети, 2017. – Б. 19.

O'quvchilarning jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri sanaladi. Binobarin, bozor munosabatlari sharoitida, qolaversa, huquqiy munosabatlar asrlar davomida shakllanib, birgina o'zaro ishonch asosida yoki uch kishining guvohligida tartibga solinganligini belgilovchi milliy qadriyatning unutilayotganligi, ayrim kishilar tomonidan "Odam savdosi"dek g'ayriinsoniy harakatning sodir etilayotganligi, mulkiy munosabatlarda shaxslar o'rtasida o'zaro ishonchsizlikning qaror topayotganligi va buni asoslovchi dalillarning tobora ko'payotganligi o'quvchilarda huquqiy bilimlarni rivojlantirish muammosining dolzarbligini ta'minlamoqda.

Maktab ta'limida o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda to'g'ri-noto'g'ri ish, foydali va zararli qilimish, qonuniy va noqonuniy faoliyat va boshqa tushunchalarga doir bilimlar boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fani, yuqori 8-11-sinflarda "Davlat va huquq asoslari" fani doirasida o'qitiladi. "Tarbiya" fani o'quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni odobli, hushxulq va yetuk axloqli bo'lishlariga e'tiborni qaratsa, "Davlat va huquq asoslari"da huquqiy savodxonlikka dor bilimlar, davlatchilik va huquqshunoslikka dor birlamchi bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi. Mazkur fanlar o'quvchilarga "jazo" tushunchasining axloqiy va huquqiy mazmunini, uning jamiyatdagi ifodalanish shakllarini tushuntiradi. Shuningdek, ular yaxshilik va yomonlikni ajratishdan boshlab, huquqbuzarlik belgilari haqida zarur bilimlarni olish imkonini yaratadi.

Huquqiy ta'lim va tarbiyaning funksiyalari jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi (**1-jadvalga qarang**).

O'quvchilarga 1-11-sinflarda "Tarbiya" fanidan 34 soat dars o'tiladi. O'quvchilarga odob-axloq qoidalari, xulq-atvor, hushxulqlik tarbiyasi, axloqiy qadriyatlarni vamilliy tarbiya asoslarini o'qitish bilan birga inson harakatlari erkinligi, zararli odatlarga doir bilimlar berib boriladi. 8-11-sinflarda "davlat va huquq asoslari"fanidan 34 soat dars o'tiladi va o'quvchilarda jamiyat, davlat, davlatning funksiyalari, davlatning boshqaruv tuzilishi, siyosiy tartiboti, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati va davlatning boshqaruv organlari, huquq va huquqiy munosabatlar, huquqbuzarlik kabi muhim huquqiy bilimlar shakllantiriladi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar dars jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi haqida, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, burchlari, jamoat birlashmalari, davlatimizning ma'muriy hududiy tuzilishi, davlatning boshqaruv organlari faoliyati haqidava boshqa muhim huquqiy mavzularni o'rganadi.

Ushbu tamoyillarga asoslangan metodikalar o'quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirishga, ularni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida shakllantirishga va jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **"O'quvchilarning jinoyat va jazoga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni jinoyat va jazoga doir bilimlarini rivojlantirishning pedagogik tizimi, o'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish modeli hamda o'quvchilarda jinoyat va jazoga oid bilimlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'llari yo'ritilgan.

1-jadval.

Huquqiy ta'lim va tarbiyaning funksiyalari

Adaptatsiya	Ma'rifiy funksiya	Tarbiyalash	Regulyativ-normativ funksiya	Integrativ funksiya	Kommunikativ funksiya	Ijtimoiylashuv
-------------	-------------------	-------------	------------------------------	---------------------	-----------------------	----------------


Ta'lim muassasalari o'quvchilarida jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish tamoyillari bir qancha elementlardan tashkil topadi (**2-jadvalga qarang**).

2-jadval.

O'quvchilarida jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish tamoyillari

№	Tamoyillar	Tamoyillarga sharhlar
1	Ilmiy asoslan-ganlik	O'quv dasturlari va metodikalar jinoyat huquqi, kriminologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanishi hamda o'quvchilarga taqdim etiladigan ma'lumotlar aniq, ishonchli va dolzarb bo'lishi lozim.
2	Yosh xususiyat-larini hisobga olish	O'quv materiallari va metodlari o'quvchilarning yoshiga, rivojlanish darajasiga va qiziqishlariga moslashtirilishi hamda murakkab huquqiy tushunchalarni tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazish uchun turli xil o'quv usullari va vositalaridan foydalanish kerak.
3	Amaliy	O'quvchilar o'zlarining huquqiy bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari va buning uchun rolli o'yinlar, keys-stadilar, sud jarayonlariga tashriflar kabi amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi zarur.
4	Axloqiy tarbiya	Huquqiy bilimlar axloqiy tarbiya bilan uyg'unlashtirilishi o'quvchilarda qonun ustuvorligi, huquqiy madaniyat, javobgarlik va boshqa axloqiy qadriyatlarni shakllantirilishi shart.
5	Hamkorlik	O'quv jarayonida o'qituvchilar, ota-onalar, huquqshunoslar va boshqa mutaxassislar o'rtasida hamkorlik o'rnatilishi bu esao'quvchilarga har tomonlama va sifatli ta'lim berish imkoniyatini yaratishi darkor.
6	Profilaktika	Ta'lim berish jarayoni jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan bo'lishi va o'quvchilarda qonunbuzarlikka qarshi immunitetni shakllantirish va ularni ijtimoiy xavfli xatti-harakatlardan ogohlantirish lozim.
7	Integrat-siyalash	Jinoyat va jazo masalalari boshqa o'quv fanlari bilan integratsiyalashgan holda o'qitilishi bu esao'quvchilarga huquqiy bilimlarni kengroq kontekstda tushunishga imkon beradi.
8	Interaktiv	O'quv jarayoni interaktiv usullar yordamida tashkil etilishi va bu o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish kerak.

Jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli o'quvchilarda huquqiy ongini shakllantirish hamda ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishdagi muhim omil hisoblanadi. Mazkur model huquqiy tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol o'qitish usullarini joriy etish va nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, **birinchidan**, "faol ta'lim" prinsipiga asoslangan metodikada o'quvchilarga jinoyat va jazoni tushuntirishda rolli o'yinlar, "case-study" (vaziyatli masalalar) hamda munozaraviy mashg'ulotlar qo'llaniladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, masalalarni tahlil qilishga va ijtimoiy adolatga oid qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. **Ikkinchidan**, "muammoli ta'lim" usuli orqali o'quvchilarga hayotiy vaziyatlar misolida jinoyatning salbiy oqibatlari va jazolashning tarbiyaviy ahamiyati namoyon etiladi (**2-rasmga qarang**).



2-rasm. O'quvchilarda jinoyat va jazoga doir bilimlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli

Tarbiya fani doirasida o'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga oid dastlabki tasavvurlarni shakllantirish ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega, chunki jamiyatda huquqiy ongni oshirish va yoshlarni tarbiyalashda jinoyatning mohiyati va jazoning maqsad-mazmunini to'g'ri tushuntirish muhim rol o'ynaydi.¹ Mazkur masala butun dunyo bo'ylab pedagogik ta'lim jarayonlarida dolzarb bo'lib, ayniqsa, 11-sinf "Davlat va huquq asoslari" fanida "Jinoyat" mavzusi orqali keng yoritiladi. Shu sababli, ushbu paragrafda tarbiya fani metodologiyasi asosida o'quvchilarda huquqiy tushuncha va qarashlarni shakllantirish, ularni nazorat qilish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy-pedagogik yondashuvlar, samarali uslublar hamda o'quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish yo'llari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

O'quvchilarga 11-sinf "Davlat va huquq asoslari" fani jarayonida "Jinoyat" mavzusini o'rganishda tarbiyaviy jihat eng ustuvor masala sifatida nazardan chetda qolmasligi lozim. Ana shu maqsadda biz yangi metodika ishlab chiqishni taklif qilamiz. Bu metodika shartli ravishda "**Huquqiy tahlil** (legal analysis)" deb nomlanadi. Ushbu metodikada asosiy e'tibor o'quvchining mustaqil ravishda jinoyat tushunchasiga doir axborotlarni tahlil qilishi, unga munosabat bildirishi, haqiqatan ham bu tushunchaning qonunchilikda nechog'lik keng qamrovli ekanini anglash, jinoyat sodir etish ortida qanday oqibatlar borligini his qilish, jazo turlarini haqqoniy baholash, shu bilan birga, yuksak huquqiy ongni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar o'tkazishga qaratiladi. So'nggi bosqichda esa, "Tanqidiy fikrlash" asosida huquqiy tushuncha va huquqiy refleksiyaning rivojlantirish usuli orqali o'quvchilarga o'zlashtirilgan ko'nikmalarni mustaqil hayotda qo'llay olishlari uchun reflektiv va mulohazali vazifalar taqdim etiladi.

"Davlat va huquq asoslari" fanida "Jinoiy jazo" mavzusini o'qitish jarayonini qayta ko'rib chiqish, yangicha metodikani joriy etish va o'quvchilarida chuqur tushuncha hosil qilish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

O'quvchilarda jinoyat va jazoga oid bilimlarini rivojlantirish maqsadida "**Adolat nima?** (What is justice?) " metodini qo'llash juda samarali yondashuv bo'lishi mumkin. Bu metod o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, turli nuqtai nazarlarni tushunishga va tahlil qilishga undaydi. Quyida bu metodni qo'llashning bosqichlari va usullari keltirilgan:

Maqsad: O'quvchilarda "adolat" tushunchasining mohiyatini chuqur anglash, jinoyat va jazo tizimiga nisbatan o'z fikrlarini shakllantirish, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish.

Qo'llash bosqichlari va usullari:

1. Kirish va tushunchani aniqlash:

Savol tashlash: Darsni "Sizningcha, adolat nima?" degan savol bilan boshlang. O'quvchilarga o'z fikrlarini erkin bayon qilish imkoniyatini bering. Doskada yoki qog'ozda ularning javoblarini yozib boring.

Turli ta'riflarni muhokama qilish: Lug'atlardan yoki turli manbalardan "adolat" so'zining ta'riflarini o'qib bering va ularni muhokama qiling. O'quvchilardan qaysi ta'rif ularga ko'proq ma'qul kelganini so'rang.

¹ Mahmudjonovna T. G. Tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 43. – C. 16-22.

2. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (Case Studies):

Turli xil ssenariylar taqdim etish:

Misollar:

Guruhlarda muhokama:

Guruhlarning taqdimotlari:

3. Turli adolat nazariyalarini o‘rganish:

Qisqacha ma’lumot berish:

Nazariyalarni qo‘llash:

4. Huquqiy tizim va adolat:

Qonunlarning maqsadi:

Sud tizimi va adolat:

Jazo tizimi va adolat:

5. Empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish:

Qurbonlar hikoyalari:

Jinoyatchilarning motivlari:

Jamiyatning roli:

6. Yakunlash va xulosalar:

O‘quvchilarning fikrlarini umumlashtirish:

Ochiq savollar qoldirish:

“**Adolat nima?** (What is justice?)” metodini qo‘llashda e’tiborga olish kerak bo‘lgan jihatlar:

Yoshga moslashuv:

Ssenariylar, muhokama savollari va nazariy ma’lumotlar o‘quvchilarning yoshiga mos bo‘lishi kerak.

Xavfsiz muhit yaratish:

Fasilitator roli:

Turli xil resurslardan foydalanish:

Ushbu bosqichlar “**Adolat nima?** (What is justice?)” metodini o‘quvchilarda jinoyat va jazoga oid bilimlarini rivojlantirish maqsadida samarali qo‘llashga yordam beradi. Bu metod o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, tanqidiy fikrlashga va o‘z nuqtai nazarlarini shakllantirishga undaydi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarda jinoyat va jazo haqidagi bilimlarni nafaqat kengaytirishga, balki ularning axloqiy qarashlarini shakllantirishga, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va jamiyatda o‘z o‘rinlarini anglashlariga yordam beradi.

Jinoyat bilan bog‘liq salbiy oqibatlarining ilk belgilarini aniqlay bilish, ularni oldini olish borasida sifatli maslahatlar taqdim etish pedagogik mahorati baland o‘qituvchidan talab etiladi. Mazkur yo‘nalishda yangicha yondashuv sifatida “**Huquqiy faollik** (Legal activity)” taklif etilishi mumkin. Bu metodikada, avvalo, o‘quvchining shaxsiy huquqiy e’tirofini shakllantirishga urg‘u beriladi: ya’ni har bir o‘quvchi o‘zining huquqlari va majburiyatlari, jamiyat oldidagi javobgarligi haqida muntazam ravishda refleksiya qiladi. Keyinchalik, o‘quvchi rolivoy o‘yinlar, guruhiy muhokamalar, amaliy keyslar orqali “jinoyat” tushunchasi bilan bog‘liq vaziyatlarning mohiyatini ilmiy asosda tahlil qiladi, bu jarayonda esa o‘qituvchi yo‘l-yo‘lakaylari maslahatchilar rolini bajaradi. Mazkur texnologiyada o‘quvchi tomonidan o‘z fikrini ilmiy tahlil asosida bildirishi rag‘batlantiriladi, biroq unga biron

bir ko‘rsatma yoki tayyor javobni yodlash emas, balki mustaqil axborot manbalarini o‘rganish yordamida xulosa chiqarish tavsiya etiladi. Shu asosda “jinoiy jazo” mavzusi bo‘yicha huquqiy adabiyotlar, statistik ma‘lumotlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan rasmiy raqamlar, Oliy sud qarorlari kabi resurslardan iqtiboslar keltiriladi.

Ushbu asosda ishlab chiqiladigan yangi metodika chuqur ilmiy asoslarga ega bo‘lishi shart. Biz “**Huquqiy faollik (Legal activity)**”ni amalga oshirish jarayonida bir nechta mezonlarga e‘tibor qaratamiz (**3-jadvalga qarang**).

3-jadval.

“Huquqiy faollik (Legal activity)” metodini amalga oshirish mezonlari

Birinchi mezon	– o‘quvchilarda huquqiy tushunchalarni aniq shakllantirish, ya‘ni jinoyat, huquqbuzarlik, jinoiy jazo, aybdorlik, jabrlanuvchi, adolat, jazolash tartibi kabi terminlarni tushunishda bir xil standartni ta‘minlash.
Ikkinchi mezon	– o‘quvchilarda huquqiy ong va huquqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bu mezonni amalga oshirish uchun esa har bir darsda real keyslar, hayotiy misollar yoki huquqni muhofaza qiluvchi idoralar statistikasi bilan bog‘liq ko‘nikmalar shakllantiriladi.
Uchinchi mezon	– amaliy mahoratini oshirish. Bu esa o‘quvchilarni jamoaviy, guruh yoki mustaqil tahlillarga jalb qilish, topshiriqlarni bajarish jarayonida huquqiy axborot manbalarini o‘qib-o‘rganish, ayrim holatlarda huquqshunos mutaxassislar bilan onlayn uchrashuvlar tashkil qilish demakdir.
To‘rtinchi mezon	– shaxsiy mas‘uliyatni anglash mexanizmini yorqin ko‘rsatib berish. Jinoyat tushunchasi o‘quvchining ongida faqat huquqiy bir tushuncha sifatida emas, balki axloqiy-ma‘naviy oqibatlariga olib keluvchi salbiy holat sifatida shakllanishi uchun psixologik yondashuv talab qilinadi.
Beshinchi mezon	– samaradorlik monitoringi. Ya‘ni darslar yakunida o‘quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalari haqida qanchalik chuqur bilim shakllandi, ular huquqiy jihatdan savodxon bo‘lishdi, o‘z xatti-harakatlarining oqibati uchun javobgarlikni anglay olishdimi, degan savollarga javob olish maqsadida muntazam ravishda monitoring o‘tkazib boriladi. Ushbu mezonlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, umumiy holda jinoyat va jazo haqidagi tushuncha minglab o‘quvchilar ongida to‘g‘ri shakllanishi uchun bir butun tizim sifatida hizmat qiladi.


